

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.Abdullayeva</b>	
XX asrning 20-yillarida Buxoro me'moriy obidalarining ta'miroti masalasi .....	324
<b>F.Temirov</b>	
Sadriddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari.....	328
<b>I.Naimov</b>	
Ahmad Donish ilmiy merosida islom huquqi masalalari.....	333
<b>R.Rahimov</b>	
Yevropa noshirlik uylari vujudga kelish tarixiga nazar .....	337
<b>D.A.Choriyeva</b>	
Madaniyat sohasida oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar muammosi va yechimlar.....	342
<b>O.V.Mahmudov</b>	
O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimida Ispaniya shaharlarining o'rni: Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviya .....	353
<b>A.A.Hakimov, B.A.Usmanov</b>	
Amir Abdulloning Xorazm yurishi .....	360
<b>N.X.Choriev</b>	
Buxoro Amirligining janubiy hududlarida irrigatsiya tarmoqlarining rivojlanishi .....	365

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>I.Yakubov</b>	
"Modern" o'zbek romanlarida majoziy va xayoliy-parodoksal ifoda .....	368
<b>P.Bakirov</b>	
Turli tizimli tillarda nominatsentrik maqollar mazmun plani .....	373
<b>I.Mannopov</b>	
Yassaviylik adabiyoti tahlili masalasi .....	379
<b>Q.Yo'lchiyev</b>	
Anvar Obidjon lirikasida semiotik xususiyatlar .....	383
<b>J.Eshonqulov</b>	
Hayrat Buxoriy ijodida ijtimoiy hayot va muhit tanqidining badiiy xususiyati .....	388
<b>T.Matyobova</b>	
Tuyg'u va kechinmani kitobxonga "yuqtirish" mahorati.....	394
<b>M.Qurbonaliyeva</b>	
Taqiuddin Muhammad Avhadiy "Arafot-ul-oshiqin" va Mutribiy Samarqandiy "Tazkirat-ush-shuaro" asarlarning qiyosiy tahlili .....	399
<b>I.Eshonqulov</b>	
Tazkiranavislar nuqtayi nazaridan Mirsiddiqxon Hashmatbuxoriy o'rnini anglash .....	405
<b>H.Ne'matova</b>	
Hoji Muinning "Kattaqo'rqon xotiralari" safarnomasi .....	413
<b>X.A.Xaitov</b>	
O'zbek adabiyotida lingvistika asosida kulgi uyg'otish masalasi .....	417
<b>Samadi Nooria</b>	
Maqollarning metodik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari .....	421
<b>A.G.Sabirdinov</b>	
Shuhrat she'rlariga bir nazar .....	427
<b>S.Muminov, Z.Kamoliddinova</b>	
Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida qo'llangan sinonimlarining lingvopoetikasiga doir.....	433

#### TILSHUNOSLIK

<b>Sh.Iskandarova, D.Qo'ldasheva</b>	
Furqat g'azallarida jonlantirishlarning ifodalanishi .....	439
<b>Sh.A.Ganiyeva</b>	
Frazeologik ma'no: kategorial va grammatik ma'no muammolari .....	443
<b>D.Yuldasheva, S.Nishonova</b>	
Maqollarda "bola" kontseptining ifodalanishi.....	447
<b>M.Saminjonov</b>	
Tilshunoslikda nutqiy janrlar va soha qasamlari masalasi.....	450
<b>O.Latipov</b>	
Rus, o'zbek, tojik va ingliz <i>tillarida "dog/it/sag"</i> zoonim so'zining konseptual talqini .....	454

**MADANIYAT SOHASIDA OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASSIS KADRLAR MUAMMOSI VA YECHIMLAR (1991-2016 ЙИЛЛАР)****ПРОБЛЕМА И РЕШЕНИЯ ВЫСШЕОБРАЗОВАННЫХ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ КАДРОВ В ОБЛАСТИ КУЛЬТУРЫ (1991-2016 ГОДЫ)****THE PROBLEM AND SOLUTIONS OF HIGHLY EDUCATED SPECIALIST PERSONNEL IN THE FIELD OF CULTURE (1991-2016 YEARS)****Choriyeva Dilorom Abdumuminovna****Choriyeva Dilorom Abdumuminovna**– O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi  
O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha  
Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz ilmiy xodimi**Annatotsiya**

*Ushbu maqola O'zbekistonda mustaqillik yillarida madaniyat sohasida oliy ma'lumotli kadrlar muammosi va yechimiga bag'ishlangan bo'lib, muallif tomonidan O'zbekistonda Madaniyat vazirligi tasarrufida faoliyat yuritayotgan madaniyat muassasalarining kadrlar muammosi holati ilmiy tahlil etilgan. Arxiv manbalariga tayangan holda madaniyat muassasalari faoliyatining sustligini, oliy ma'lumotli kadrlar yetishmasligining asosiy sabablari atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek, kadrlar muammosiga doir bir qancha yechimlar ko'rsatib berilgan.*

**Аннотация**

*Данная статья посвящена проблеме и решению проблемы высокообразованных кадров в сфере культуры в годы независимости Узбекистана. На основе архивных источников подробно описаны основные причины нехватки высокообразованных кадров и медлительности деятельности учреждений культуры. Также указывается несколько вариантов решения кадровой проблемы.*

**Abstract**

*This article is devoted to the problem and solution of the problem of highly educated personnel in the field of culture during the years of independence of Uzbekistan. On the basis of archival sources, the main reasons for the lack of highly educated personnel and the slowness of the activities of cultural institutions are described in detail. Several options for solving the personnel problem are also indicated.*

**Kalit so'zlar:** madaniyat, vazirlik, san'at, muassasa, institut, mutaxassis, kutubxonachi, kadr, maosh, oliy ma'lumotli, musiqa, ko'rik-tanlov.

**Ключевые слова:** культура, министерство, искусство, учреждение, институт, специалист, библиотекарь, кадры, заработная плата, высшее образование, музыка, конкурс.

**Key words:** culture, ministry, art, institution, institute, specialist, librarian, personnel, salary, higher education, music, competition.

**KIRISH**

Har bir sohani rivojlantirishda, zamon talablariga javob beradigan raqobatbardosh, sifatli kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Bu masala nafaqat O'zbekistonda balki, dunyo miqyosida ham dolzarb masalalar qatorida turadi. Chunki, jamiyatning rivojlanishi yetuk salohiyatli kadrlarning tayyorlanishi, faoliyat yuritishi bilan belgilanadi. Shu bois, O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida kadrlar masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, barcha sohani sifatli kadrlar bilan ta'minlash bevosita ta'lim bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 1992-yil iyul<sup>[2]</sup><sup>42</sup>, 1997-yil 29-avgust<sup>43</sup>, (2020-yil 23-sentyabr<sup>44</sup>) oylarida «Ta'lim to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, ta'lim tizimi mazmuni tubdan yangilandi. Xususan, 1997-yilda qabul qilingan kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qoliplardan to'la xalos etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlashning rivojlangan

<sup>42</sup> O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 636-XII-son 02.07.1992. Qarang: <http://lex.uz/docs/56418>. 20.11.2018.

<sup>43</sup> O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. N 464-I. 29.08.1997. <https://nrm.uz/contentf?doc=5989>

<sup>44</sup> O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. O'RQ-637-son. 23.09.2020. <https://lex.uz/docs/5013007>

## TARIX

demokratik davlatlar darajasidagi, yuksak ma'naviy va axloqiy talablariga javob beruvchi milliy tizimini yaratishdan iborat bo'ldi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI VA MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI**

Ushbu maqola arxiv va joriy arxiv manbalariga tayangan holda, tarixiylik, ilmiy obyektivlik, xolislik, izchillik, uzviylik, qiyosiy tahlil, fanlararo yondashuv, tarixiy faktlar tahlili kabi metodlardan foydalangan holda tahlil qilindi. O'zbekistonda mustaqillik yillarida madaniyat sohasining turli aspektlari tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, A.A.Mavrulov, M.Nurmuhamedova, A.Ro'zmetov, N.Mustafayeva, D.S.Mamajonovlar tomonidan sovet davrida O'zbekiston madaniy hayoti tadqiq qilingan bo'lsa, X.Xamidov, N.B.Sayfullayev, B.SH.Irzayevlar tomonidan, mustaqillik davrida faoliyat yuritgan madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining ayrim jihatlari tarixiy nuqtai nazaridan tadqiq qilingan. Lekin, mustaqillik yillarida O'zbekistonda madaniyat sohasida oliy ma'lumotli kadrlar muammolari, tadrijiy kompleks ravishda tadqiq qilinmagan va bu masala chuqur o'rganishni talab qiladi.

**TAHLIL VA NATIJALAR**

Shuningdek, madaniyat sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat muassasalarini barpo etish, ularni moddiy texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor yuksak kadrlarni tayyorlash va ularni qo'llab-quvvatlash masalalariga davlat tomonidan alohida ahamiyat qaratildi. Xususan, madaniyat sohasi boshqaruvi tizimidagi ta'lim muassasalari nazoratini olib borish uchun Madaniyat vazirligi apparati tarkibida "Fan, o'quv yurtlari va kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash boshqarmasi" tashkil etildi. Ushbu boshqarma vazifasi: vazirlik tizimidagi o'quv yurtlarida madaniy-ma'rifiy, badiiy-ijodiy kasblar bo'yicha mutaxassislarining ta'lim olishini tashkil etish, musiqa hamda san'at maktablarida bolalar va o'smirlarning puxta ta'lim olishlarini ta'minlash; soha fanlarini rivojlantirish, doktorantura, aspirantura, assistentura-stajirovka bazasida yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash uchun qulay shart sharoitlarni ta'minlash; o'quv rejalari va ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash, vazirlikka qarashli o'quv yurtlari uchun maxsus fanlar bo'yicha darslik va qo'llanmalar nashr etishga buyurtmalar berish; madaniyat va san'at xodimlarining kasb mahoratini oshirishni tashkil etish belgilandi.

Keyinchalik, 1993-yilda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi buyrug'i bilan vazirlik huzurida "Istiqbolni belgilash, uslubiyat va axborot respublika markazi" tashkil etildi.<sup>45</sup> Markazning asosiy vazifasi etib, mutaxassisliklar va soha bo'yicha xodimlar soni va sifatini aniqlash, vazirlik miqyosida kadrlar siyosatini shakllantirish, oliy va o'rta-maxsus bilim yurtlariga qabul masalasini nazariy konseptual jihatdan asoslash belgilangan. Shuningdek, unga madaniyat sohasidagi ta'lim muassasalarida yillik, pullik xizmat rejalari belgilash, qayerda va qanday madaniyat muassasalari qurilishini rejalashtirib, unga zarur mablag'lar ajratgan.

Afsuski, bu davrda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish bo'yicha bir muncha ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, madaniyat va san'at muassasalarini barpo etish borasida, kadrlar bo'yicha muammolar talaygina edi. Ayniqsa, madaniyat muassasalarida kadrlarga bo'lgan ehtiyoj katta bo'lgan. Xususan, bu holat chekka hududlarda faoliyat yuritayotgan madaniyat muassasalarida ko'zga tashlanadi. Jumladan, Farg'ona viloyati madaniy-ma'rifiy muassasalarida jami 2227 nafar xodim faoliyat olib borgan bo'lsa, ulardan 506 nafari oliy, 859 nafari o'rta-maxsus, 862 nafar o'rta ma'lumotga ega bo'lgan. Agar biz buni foizlar miqdorida ko'rib chiqadigan bo'lsak, oliy ma'lumotli kadrlar soni atigi 23% tashkil qilgan.<sup>46</sup> Respublikaning boshqa viloyatlarida ham holat shunday edi, hattoki ba'zi viloyatlarda juda past edi.

Jumladan, respublikaning janubiy viloyatlaridan biri Surxondaryoda viloyat madaniy-ma'rifiy muassasalarida 2505 nafar xodim ish faoliyatini olib borgan. Ulardan 305 nafari maxsus oliy, 67 nafari oliy, 519 nafari o'rta-maxsus, 189 nafari o'rta ma'lumotli xodimlar bo'lgan<sup>47</sup>. Bundan ko'rinib turibdiki, viloyatda atigi 15% oliy ma'lumotli kadrlar faoliyat yuritgan.

Mustaqillik yillarining boshida O'zbekistonda madaniyat vazirligi tasarrufida Toshkent Davlat Madaniyat instituti, Mannon Uyg'ur nomidagi san'at instituti, M.Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasi kabi oliy o'quv yurtlari hamda 24 ta o'rta-maxsus o'quv yurtlari faoliyat olib

<sup>45</sup> Ushbu markaz Madaniyat vazirligining 1993-yil 10-fevraldagi qaroriga asosan tashkil qilingan. Qarang: O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 50-ish, 76-varaq.

<sup>46</sup> O'zRMA. 2487-fond, 3-ro'yxat, 6980-ish, 8-varaq.

<sup>47</sup> O'zRMDA. M-7 fond, 1-ro'yxat, 653-ish, 42-varaq.

borgan.<sup>48</sup> Davlat tomonidan belgilangan kvota asosida 1991-1992 yillarda Toshkent Davlat Madaniyat institutiga 631 ta, Mannon Uyg'ur nomidagi san'at institutiga 143 ta, M.Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasiga 131 ta, jami 905 ta talaba qabul qilingan<sup>49</sup>.

Shu bilan birga, Madaniyat vazirligi tomonidan oliy ma'lumotli kadrlar masalasi muammolarini yechish chora-tadbirlari ham ko'rilgan. Xususan, respublika viloyatlarida ishlayotgan o'rta-maxsus va o'rta ma'lumotli xodimlar uchun oliy va o'rta-maxsus madaniyat bilim yurtlariga maxsus kvotalar ajratilib<sup>50</sup>, nomzodlar ro'yxati viloyat madaniyat boshqarmalari tomonidan shakllantirilgan. Jumladan, 1991-yilda Xorazm viloyati bo'yicha oliy va o'rta-maxsus madaniyat bilim yurtlariga 53 nafar, shulardan 22 nafari Toshkent davlat madaniyat institutiga, 17 nafari Toshkent madaniy-oqartuv texnikumiga, 10 nafari Buxoro madaniy-oqartuv texnikumiga, 4 nafari Qarshi madaniy-oqartuv texnikumiga o'qishga kirgan<sup>51</sup>.

Surxondaryo viloyatidan 1997-yilda 45 nafar yosh mutaxassislar madaniyat va san'at sohasi bo'yicha oliy va o'rta-maxsus o'quv yurtlarini bitirgan va ular ish bilan ta'minlangan. Bundan tashqari, viloyat madaniyat muassasalarida faoliyat yuritayotgan 28 nafar rahbar va mutaxassis xodimlar Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutida, Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'at institutida, Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyalarida malaka oshirgan. 1999-yilga kelib, malaka oshiruvchi kadrlar soni 70 nafarni tashkil qilgan.<sup>52</sup>

Klub muassasalariga xodimlarni tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish masalalari mustaqillik yillarining boshidan katta e'tibor qilingan. Jumladan, Xorazm viloyati bo'yicha 10 ta klub xodimi o'quv yurtini tamomlab kelgan. Ularning 5 nafari oliy o'quv yurtini tugatgan xodimlar edi. Ushbu davrda Xorazm viloyatida 414 ta klub xodimi faoliyat yuritgan bo'lib, ulardan 116 tasi maxsus oliy ma'lumotli, 230 nafari o'rta-maxsus ma'lumotli, 128 nafari o'rta ma'lumotli xodimlar edi. Foizda hisoblaganda atigi, 28% oliy ma'lumotli kadrlar bo'lgan. Bundan ko'rinib turibdiki, klub muassasalariga oliy ma'lumotli kadrlar uchun ehtiyoj sezilgan.<sup>53</sup>

Viloyatlarda klub xodimlarini tayyorlash va ularni malakasini oshirish borasida ham bir muncha ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Sirdaryo viloyatining Guliston shahrida joylashgan san'at bilim yurti har yili madaniy-ma'rifiy xodimlarni tayyorlab, yo'llanma bilan viloyatning turli hududlariga yuborib turgan<sup>54</sup>. Toshkent shahriga esa, 15 nafar klub xodimi o'qishga yuborilgan<sup>55</sup>.

Madaniyat sohasidagi kadrlarni yetishmasligini quyidagi sabablar bilan izohlash mumkin: madaniyat xodimlariga davlat tomonidan ajratilgan oylik maoshlarining kamligi, ularga kerakli sharoitlarni yaratilmaganligi, mustaqillikning dastlabki yillarida ro'y bergan iqtisodiy qiyinchiliklar va buni to'g'ridan to'g'ri oliy o'quv yurtlari talabalar soniga ta'sir qilishi.

Kutubxonalar bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, kutubxonalarda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning 28% oliy ma'lumotli, 22% o'rta-maxsus ma'lumotli edi.<sup>56</sup> Masalan, Sirdaryo viloyatida 1998-yilda 389 nafar kutubxonachi ishlagan bo'lsa, ulardan 46 nafari oliy ma'lumotli, 70 nafari o'rta-maxsus ma'lumotli xodimlardan iborat bo'lgan. Boshqa viloyatlarga nisbatan, Sirdaryo viloyati kutubxonalarida nisbatan oliy ma'lumotli mutaxassislar kamchilikni tashkil qilgan. Shu bois, kutubxonalarda kadrlar yetishmasligi tufayli (65%) o'z faoliyatlarini qoniqarli darajada yurita olmagan. Xususan, Mirzaobod tumanida turli yillar davomida faoliyat yuritgan 32 nafar

<sup>48</sup> Bu ma'lumot ko'rib chiqilayotgan 1992 yillarga ta'lluqli. O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 58-ish, 155-varaq.

<sup>49</sup> O'zRMA 2487-fond, 3-ro'yxat, 6950-ish, 21-varaq. Bu yerda respublikada faoliyat yuritayotgan pedagogika yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari qoshidagi madaniyat sohasiga tegishli fakultetlarga, o'rta-maxsus o'quv yurtlariga qabul qilingan talabalari soni kiritilmadi. Chunki, tadqiqot Madaniyat vazirligi tarkibiga kiruvchi muassasalar faoliyati bilan chegaralangan.

<sup>50</sup> Ayrim madaniyat muassasalarida maxsus mutaxassislik bilimiga ega bo'lmagan o'rta ma'lumotli xodimlar ham faoliyat yuritgan, masalan kutubxonalarda.

<sup>51</sup> O'zRMDA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 648-ish, 6-varaq (Ushbu ma'lumot 1998 yillarga ta'lluqli ekanligini ta'kidlash lozim)

<sup>52</sup> O'zRMDA. M-7 fond, 1-ro'yxat, 653-ish, 42-varaq.

<sup>53</sup> O'zRMDA. 2487-fond, 3-ro'yxat, 6983-ish, 19-varaq.

<sup>54</sup> Arxiv hujjatlarida Guliston san'at bilim yurti Sirdaryo viloyati hududlariga mutaxassis kadrlarni tayyorlab jo'natganligi haqida hisobot tarzidagi ma'lumotlar keltirilgan. Shu o'rinda ushbu bilim yurtida nafaqat Sirdaryo viloyati hududlaridan balki, boshqa viloyatlardan ham kelib talabalar o'qiganligini e'tiborga olish lozim. Qarang: O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 655-ish, 34-varaq.

<sup>55</sup> O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 654-ish, 13-varaq.

<sup>56</sup> Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining 1993-1994 yillardagi asosiy ko'rsatkichlari –T., 1995, B. 7-22.

## TARIX

kutubxonachidan, faqatgina 2 nafari, Mehnatobod tumani Markaziy kutubxona tarmog'ida<sup>57</sup>, 9 nafar kutubxonachidan 1 nafari, Sh.Rashidov tumani MKTda 21 nafar kutubxonachidan 1 nafari, Oqoltin tumani MKTda 18 nafar kutubxonachidan, 4 nafari, Xovos tumani MKTda 42 nafar kutubxonachidan 9 nafari mutaxassis bo'lganligini keltirish mumkin.<sup>58</sup>

Yuqorida keltirilgan materiallar tahlili Xovos, Mehnatobod, Sh.Rashidov tumanlari MKTlarida ish hujjatlari, ish yuritish qoidalariga rioya qilinmagan holda olib borilganligini ko'rsatadi. Buni mutaxassislarning yetishmasligi va uslubiyatchilarning nomunosibligi bilan baholash mumkin. Bu kamchiliklar hisobga olingan holda Sirdaryo viloyati Madaniyat boshqarmasi kengashi qaroriga binoan, 15 nafar xodim o'qishga, 6 nafar xodim, jumladan, Oq oltin tumanidan — 2 nafar, Mirzaobod tumanidan — 2 nafar, Mehnatobod tumanidan — 2 nafar kutubxonachilar malaka oshirishga yo'naltirilgan.<sup>59</sup>

2000-yilga kelib, Surxondaryo viloyatida kutubxona ishini yaxshilashdagi eng jiddiy muammolardan biri bu kadrlar masalasi bo'lgan. Xususan, ayrim tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, "kutubxonalarda mutaxassislar qo'nimsizligi kuchaygan va buning asosiy sabablaridan biri kutubxonachilar uchun shart-sharoit va moddiy rag'batning yo'qligi bo'lgan".<sup>60</sup>

Xususan, Qashqadaryo viloyati kutubxonalari faoliyatida ham yuqorida keltirilgan holatlar mavjud bo'lgan. Agar, buni kutubxonalariga a'zo bo'lgan kitobxonlar soni bilan taqqoslaydigan bo'lsak, Bahoriston tumanida ular 4233 kishini, Usmon Yusupov tumanida 5001 kishini tashkil etgan. Ularga bor yo'g'i 1-2 ta oliy ma'lumotli mutaxassislar xizmat ko'rsatgan. Muborak tumanida faqat 1 ta oliy ma'lumotli kutubxonachi ish yuritgan. Qishloq kutubxonalarining birortasida ham oliy ma'lumotli kutubxonachi faoliyat olib bormagan<sup>61</sup>.

Arxiv hujjatlari tahliliga ko'ra, Respublika miqyosida kutubxonachi mutaxassislarning yetishmasligi ko'proq kadrlarning qo'nimsizligi va ularning boshqa ishlarga o'tib ketganliklari tufayli sodir bo'lgan. 1998-yillarda viloyatlar kutubxonalaridan 60% mutaxassislar ketib qolgan. Buning sabablaridan biri qo'shni davlatlarga turli sabablar bilan aholining ketib qolishi<sup>62</sup>, migratsiya jarayoni bo'lsa, yana bir sababi oylik maoshlarining kamligi bo'lgan. Arxiv ma'lumotlaridan o'rin olgan madaniyat vazirligi hisobotlarida, vazirlik tasarrufidagi o'quv yurtlarida o'zbek tilidagi o'quv qo'llanmalar, dasturlar yetishmasligi haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, madaniy-ma'rifiy ishlar, kutubxonalar, madaniyat va aholi dam olish markazlari, bolalar musiqa va san'at maktablarida binolar ham yetishmagan.<sup>63</sup> Bular ham o'z navbatida, kadrlar tayyorlashda o'z ta'siriga ega bo'lgan.

Bundan tashqari, madaniy-ma'rifiy muassasalar uchun xodimlar tayyorlash ishlarida jiddiy kamchiliklar bo'lganligini ta'kidlash lozim. Bu narsa asosan son ko'rsatkichlarga taalluqlidir. Gap shundaki, agar 1991-yilda kutubxonachilik va klub ishlari metodistlari tashkilotchisi bo'limlariga hammasi bo'lib 855 talaba qabul qilingan bo'lsa, bu raqam 1998-yilga kelib 226 tani tashkil etgan xalos.<sup>64</sup> Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 8 iyundagi 222-sonli "2000-2001 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining Oliy ta'lim muassasalariga qabul to'g'risida"gi qaroriga asosan A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining kutubxonachilik yo'nalishi bo'yicha grant asosida atigi 20 ta o'rin ajratilgan. Vaholanki, respublikada Madaniyat vazirligi tasarrufida 6000ga yaqin kutubxonalar faoliyat ko'rsatgan. Kutubxonalarda xizmat qilayotgan xodimlarning atigi 28 foizi oliy ma'lumotli xodimlar edi. Madaniyat vazirligi tasarrufida bo'lmagan 14000 ga yaqin kutubxonalarda ahvol bundan ham achinarli edi. Bu holatni institutning marketing xizmatiga viloyatlardan tushayotgan buyurtmalaridan kuzatish mumkin. Jumladan, 2000-2001 o'quv yili uchun kutubxonachilik yo'nalishi bo'yicha berilgan buyurtmalar soni 150 tani tashkil etgan.<sup>65</sup>

<sup>57</sup> Bundan buyon MKT.

<sup>58</sup> O'ZRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 655-ish, 36-varaq.

<sup>59</sup> O'ZRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 655-ish, 9-varaq.

<sup>60</sup> Karimbekov Q., Qorayev Sh. Ma'naviyat hissi. – Toshkent: O'qituvchi, 2000. – B. 22-91.

<sup>61</sup> O'z.RMA, M-7-jamg'arma, 1-ro'yxat, 394-ish, 5-varaq.

<sup>62</sup> Ko'rib chiqilayotgan davrga oid materiallar tahlili madaniyat muassasalarida ko'proq rus va boshqa millatlarga mansub mutaxassislar faoliyat yuritganligini ko'rsatadi. Ma'lumki, mustaqillikning dastlabki yillarida ayrim millatlarga mansub aholini ko'chib ketishi kuzatiladi.

<sup>63</sup> O'ZRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 614-ish, 13-varaq.

<sup>64</sup> O'ZRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 176-ish, 368-varaqlar.

<sup>65</sup> O'ZRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 890-ish, 43-varaq

Yuqorida aytilgan kamchiliklar madaniyat muassasalari faoliyatiga keskin o'z ta'sirini ko'rsatdi. Natijada, muassasalar faoliyatini samarali olib borilishida kadrlar salohiyati va kadrlar yetishmasligi asosiy muammolardan biri bo'lib qoldi. Jumladan, madaniyat va aholi dam olish markazlari boshqaruvi holati o'rganib chiqilganda, shu narsaga duch keldikki, markazlarni boshqarib kelayotgan rahbarlar orasida ham kadrlar nomutanosibligini kuzatdik. Jumladan, 2016 yilga kelib, respublikada mavjud bo'lgan 894 ta madaniyat va aholi dam olish markazlarida, jami 7264 ta shtat birliklari mavjud bo'lgan. Shundan, 4856 nafari ijodiy xodimlarni, 2408 nafari texnik xodimlarni tashkil etgan. Xodimlarning 1186 nafari oliy, 3313 nafari o'rta maxsus, 357 nafari o'rta ma'lumotli kadrlarni tashkil etgan<sup>66</sup>. Madaniyat markazlarini boshqarib kelgan rahbarlarning 24 foizigina oliy ma'lumotli rahbarlar edi. Bu juda ayanchli edi. Ushbu markazlarni boshqarib kelayotgan rahbarlar orasida ham oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar kamligi, shu bilan birga rahbar kadrlar orasida buxgalter, jismoniy tarbiya, kutubxonachi kabi mutaxassisliklarga ega bo'lgan o'rta-maxsus ma'lumotli kadrlar bo'lgan. Bu o'z navbatida madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatining sustligiga olib kelgan.

Davlat tomonidan respublika madaniyat muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, oylik maoshlarini oshirish, xodimlar soni va sifatini yaxshilashga ahamiyat berildi. Shu o'rinda, bozor munosabatlari sharoitidagi og'ir qiyinchiliklarga qaramasdan madaniyat muassasalari davlat byudjeti hisobidan ta'minlanib turilganligini ta'kidlash lozim. Bu davrda madaniyat sohasini boshqa qo'shimcha mablag'lar bilan ta'minlash siyosati ham yuritilgan. Jumladan, shaxsiy sektor va xomiylik harakati shakllangan hamda xorijiy investitsiya ma'lum ma'noda ijobiy ahamiyat kasb etgan.<sup>67</sup>

O'rganilayotgan davrda, O'zbekiston madaniyatining moddiy texnika bazasi davlat byudjeti, xomiylar<sup>68</sup>, xorijiy davlatlar yordamida<sup>69</sup> hamda madaniyat muassasalarining o'zini-o'zi moliyaviy jihatdan ta'minlash yo'nalishlari asosida rivojlanib borgan. Shu bilan birga, davlat byudjetidan ham mablag'lar ajratilgan. Masalan, 1993 yilda davlat tomonidan 16,1 mlrd. so'm mablag' ajratilgan. Madaniyat muassasalari oldiga qo'yilgan rejasida 539,3 mln so'm belgilangan va 808,3 mln so'm daromad qilingan. Bu o'sha davr rejasidagidan 269 mln so'mga ko'p edi.<sup>70</sup> Bozor munosabatlari sharoitida moliyaviy-iqtisodiy jihatdan madaniyat muassasalarini ta'minlash juda og'ir kechgan bo'lsa-da, davlat tomonidan ushbu vazifalar bosqichma-bosqich bajarilgan. (Ilova )

Masalan, 1994-yilning 9-oyida ushbu muassasalar uchun 156608,2 ming so'm, jumladan, respublika byudjetidan 64129,2 ming so'm, mahalliy byudjetdan 92479 ming so'm ajratilgan. Shu mablag'lardan teatr-tomosha tashkilotlari uchun 30573,9 ming so'm, madaniy-ma'rifiy muassasalar uchun 26724,2 ming so'm, o'quv yurtlari uchun 62154 ming so'm, ilmiy-tadqiqot ishlariga esa, 352,7 ming so'm ajratilgan. Ushbu davrda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarning to'liq ta'mirlash va qo'riqlash uchun davlat tomonidan alohida 3320 ming so'm ajratildi.<sup>71</sup> 1996-yilga kelib, teatrning tomosha va madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati uchun 1390,8 mln so'm, ilmiy-tadqiqot ishlari uchun 5,8 mln so'm, o'quv yurtlari xarajatlari uchun 322,6 mln so'm mablag' sarflangan.<sup>72</sup> 2001-yilga kelib, Davlat byudjetining 38 foizi ta'lim va ilm-fanga milliy mahsulotning 12 foizi ta'lim sohasiga sarflangan.<sup>73</sup> 2016-yilda madaniyat sohasiga 19,6 mlrd. so'm mablag' ajratilgan<sup>74</sup>. (2017-yilga kelib, madaniyat sohasiga davlat byudjeti hisobidan 320 mlrd.so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, 2018 yilda 471 mlrd.so'm mablag' yo'naltirildi<sup>75</sup>.)

Bundan tashqari bozor iqtisodiyoti sharoitida madaniyat muassasalarining o'zini-o'zi moliyaviy jihatdan ta'minlab borishi uchun, muassasalarda pullik xizmat joriy etila boshlagan. Bu esa ishlab topilgan mablag'ni ushbu sohaga jalb etish imkonini berdi. Xususan, madaniyat uylari

<sup>66</sup> O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi. Madaniyat vazirligining 2016 yilgi hisobotlari.

<sup>67</sup> YUNISEF homiyligi

<sup>68</sup> Masalan, Xamza teatrini Davlat va jamiyat kurilishi akademiyasi otaliqqa olgan.

<sup>69</sup> Yaponiya Xalqaro hamkorlik agentligi (JICA)

<sup>70</sup> O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 122-ish, 21-varaq.

<sup>71</sup> O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 120-ish, 21-varaq.

<sup>72</sup> O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 503-ish, 84-varaq.

<sup>73</sup> Xalq so'zi, 2001 yil 13 sentabr

<sup>74</sup> O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining joriy arxivi. 1-ro'yxat, 2337-ish, 35-varaq.

<sup>75</sup> O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi. Vazirlikning 2017-2018 yilgi hisoboti.

## TARIX

qoshida xo'jalik hisobida o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlay oladigan turli studiyalar, firmalar, xalq hunarmandchilik ustaxonalari, salonlar va pullik kurslar tashkil qilingan.<sup>76</sup>

Madaniyat sohasida kadrlar bo'yicha amaliy ishlar olib borilgan bo'lsa-da, yangi tafakkurga ega ega kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb bo'lib qolgan. Madaniyat sohasi bo'yicha, kadrlarni salohiyatini yanada oshirish maqsadida davlat tomonidan juda ko'plab ko'rik-tanlovlar o'tkazilib turilgan. Jumladan, har yili "Yosh kutubxonachi" Respublika ko'rik-tanlovlari, kutubxonalar o'rtasida uchrashuv kechalari, ovozli o'qishlar, tematik kechalar, konferensiyalar, bibliografik sharhlar o'tkazilib turilgan.<sup>77</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining respublikada musiqiy ta'limni, madaniyat va san'at o'quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to'g'risidagi Farmonini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar ko'rish, kadrlar tayyorlash bo'yicha 1997-yil aprel oyida yosh musiqa ijrochilarining XIV – Respublika tanlovi besh ixtisoslik bo'yicha o'tkazilgan. Unda 40 dan ortiq yosh iste'dodlar kashf qilindi. Shundan, 1-o'ringa sazovor bo'lishgan 15 nafar o'quvchi Oliy o'quv yurtlariga imtiyozli tarzda qabul qilingan<sup>78</sup>.

Shuningdek, iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularni rag'batlantirish, ijodiy salohiyatini yuksaltirish va katta sahnaga olib chiqishga sharoit yaratish maqsadida, "Nihol" mukofoti, "Bahor nafasi" Xalqaro san'at festivali, "Musiqaga chorlaydi yoshlar" madaniyat haftaligi, "Seni kuylaymiz zamondosh" O'zbekiston teatrlarining IV Respublika festivali, "Onam aytgan allalar" festivali, "Yoshlik bahori" Respublika yosh opera ijrochilari festivali, "Sozlar navosi" xalq cholg'ulari ijrochilari respublika tanlovlari o'tkazilib turilgan.

Davlat tomonidan madaniyat sohasi kadrlarining mehnatlari inobatga olinib, vaqti-vaqti bilan rag'batlantirilib turilgan. Vazirlik tizimida mehnat qilayotgan ijodkor xodimlardan 56 ijodkor mutaxassis davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Bulardan 5 kishi xalq artisti, 21 kishi xizmat ko'rsatgan artist, 1 kishi xizmat ko'rsatgan fan arbobi, 6 kishi xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, 1 kishi xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi unvoniga sazovor bo'ldilar. 15 kishi orden va 7 kishi medallar bilan mukofotlandi. Shuningdek, "O'zbekiston bastakorlari", "Asrlarga teng navolar" folklor-etnografik dastalar va boshqa Respublika ahamiyatiga molik bo'lgan ko'rik-tanlov, bellashuvlarni yuqori badiiy g'oyaviy darajada uyushtirilganligi uchun madaniy-ma'rifiy ishlar va xalq ijodiyotini rivojlantirish maxsus mablag'lar daromadlarini o'stirishga qo'shayotgan hissasini hisobga olib xalq ijodi va madaniy-ma'rifiy ishlari Respublika ilmiy-uslubiyat markazi rahbari Dehqonboy Xusanov taqdirlangan.<sup>79</sup>

Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 132-sonli 1997-98 o'quv yurtlariga qabul to'g'risidagi qaroriga ko'ra vazirlik tasarrufidagi oliy o'quv yurtlariga qabul rejasi boshlandi. Reja asosida M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasiga 120 ta, A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutiga 160 ta, M.Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'at institutiga 90 ta, Milliy raqs va xoreografiya institutiga 30 ta, jami: 400 ta talaba qabul qilingan.<sup>80</sup> Bu holatni mustaqillikning dastlabki yillari bilan solishtirganimizda, Oliy o'quv yurtlariga talaba qabul qilinishi 500 nafarga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. (Ilova yillar kesimida davlat tomonidan ajratilgan kvotalar)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 23-yanvardagi "O'zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish haqida"gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi 131-sonli qaroriga asosan Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent Davlat san'at institutining (hozirgi O'zbekiston san'at va madaniyat instituti) Rassomlik fakulteti negizida Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tashkil topgan.<sup>81</sup> Ushbu institut O'zbekiston Badiiy akademiyasi tasarrufida faoliyat ko'rsatgan.

Madaniyat sohasidagi oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlarni yetkazib berishda, Toshkent davlat madaniyat instituti muhim o'ringa ega bo'ldi. Bu davrda institutning faoliyat doirasi kengayib

<sup>76</sup> O'zRMA, M-7-fond, 1-ro'yxat, 888-ish, 17-18-varaqlar.

<sup>77</sup> O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 648-ish, 6-varaq.

<sup>78</sup> O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 614-ish, 27-varaq.

<sup>79</sup> O'zRMA Fond M-7, 1-ro'yxat, 2-ish, 149-varaq.

<sup>80</sup> O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 616-ish, 15-18 varaqlar.

<sup>81</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 23 yanvardagi "O'zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish haqida"gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi 131-sonli qarori



bordi. Jumladan, institutda ashula va raqs ansambliga rahbarlik, xalq ijodiyoti, rejissura, san'at tarixi va nazariyasi kabi kafedralar ish faoliyatini olib bordi. Ta'limning bu kabi yo'nalishlari bo'yicha, talabalarga puxta bilim berish borasida boy tajribalar orttirildi. Oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilar muallifligida yozilgan yangi darslik va o'quv qo'llanmalari nashrdan chiqarildi. Jumladan, "Sozlar sadosi", "Xalq ijodiyoti", "O'zbekiston qo'shiqchilik san'ati tarixi masalasiga doir" nomli qo'llanmalari shular jumlasidan bo'ldi. Shuningdek, Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat teatr va rassomchilik san'ati institutida ham bir nechta darslik va o'quv qo'llanmalari vujudga keldi. Bularga "Hujjatli kino san'ati asoslari", "Musiqali teatr aktyorligida nutq mahorati", "Kino san'ati asoslari" kabi darsliklar hamda "Qo'g'irchoq teatri aktyorlari mahorati", "O'zbek an'anaviy teatri tarixi" deb nomlangan o'quv adabiyotlari yaratildi.<sup>82</sup>

Shuningdek, bu davrda musiqiy ta'lim katta e'tibor qaralib, keng ko'lamlı islohotlar olib borildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-dekabr 1692-PF Farmoni<sup>83</sup>, Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 28-oktyabrdagi 415-sonli<sup>84</sup> qarorlaridagi madaniyat va san'at o'quv yurtlariga berilgan imtiyozlar hayotga tatbiq etildi. Shuningdek, qo'shimcha tarzda bolalar musiqa maktablari o'qituvchilari va jurnavozlariga belgilangan imtiyozlar ham joriy qilindi<sup>85</sup>.

Oliy ma'lumotli kadrlarni ko'paytirish masalasi o'zining dolzarbligi bilan keng ko'lamlı islohotlar o'tkazishga sabab bo'ldi. Dastlab, O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "O'zbekiston milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi Farmonining 6-bandiga asosan, 1997-yilda Milliy raqs va xoreografiya san'atini yanada rivojlantirish, o'zbek raqs san'atining tarixiy an'analarini va usullarini tiklash, avaylab-asrash hamda boyitish, o'zbek millatining o'ziga xos sharqona fazilatlarini, boy ma'naviyatiga monand raqslarni targ'ib etish uchun, O'zbek xoreografiya bilim yurti Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi nomi bilan qayta tashkil etildi va Osiyoda yagona bo'lgan oliy ta'lim dargohiga aylantirildi.<sup>86</sup>

Uning nizomi, o'quv rejalari va boshqa uslubiy hujjatlar ishlab chiqildi va ilk bor 1997-98 o'quv yili uchun talabalar qabul qilindi. Ushbu oliy maktabda bakalavr dasturi asosida, milliy raqs va balet bo'yicha baletmestrlar, baletmestr-rejissorlar, raqs ijrochilari, o'qituvchilar hamda magistr dasturi asosida, milliy raqs va xoreografiya san'ati bo'yicha ilmiy-pedagogik, ijodiy kadrlar tayyorlanish bilan birga, milliy raqs va xoreografiya san'ati bo'yicha mutaxassislar malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi. Oliy maktabda "Xoreografiya", "San'at nazariyasi va tarixi", "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedralari faoliyat yuritdi. Maktabda mumtoz raqs, o'zbek raqs, xalq sahna raqsi fanlari, «balet artisti» bo'limida duet mumtoz raqs chuqur o'rgatilib borildi. O'tgan davr mobaynida maktabdan Q.Mirkarimova, R.Karimova, G.Hamroyeva, G.Mavayeva, Y. Ismatova, D.Jabborova, V.Oqilova, F.Solihova, O'.Muxamedova, 3. Madrahimova kabi respublikamizning yetuk raqs ustalari yetishib chiqqan. Oliy maktabda Fransiya, Yaponiya, Turkiya, Germaniya, Lotin Amerikasi mamlakatlari, Jan. Koreya, Rossiya, Qozog'iston kabi xorijiy davlatlar bilan o'zaro hamkorlik, madaniy-ijodiy aloqalar o'rnatilgan. Ularning yirik xoreograflari, balet maktablari bilan tajriba almashuv, «Master klass»lar o'tkazish yo'lga qo'yilgan. R.Karimova, Q.Mirkarimova, G.Mavayeva, I.Kiborkova, A. MUMINOV kabilar maktabning etakchi pedagoglaridan hisoblanadi<sup>87</sup>.

Xususan, respublikada zamon talablari darajasida malakali oliy mutaxassis kadrlar tayyorlash maqsadida, 2002-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan O'zbekiston davlat konservatoriyasi musiqiy ta'limning barcha yo'nalishlari bo'yicha tayanch oliy o'quv yurtiga aylantirildi. Shuningdek, Toshkent davlat konservatoriyasi uchun yangi bino qurilib, u zamonaviy talablar asosida jhozlandi. Ushbu oliy o'quv yurtining nufuzi va maqomini oshirish

<sup>82</sup> Rang-barang o'quv qo'llanmalari. //Toshkent oqshomi, 2003 yil 20 yanvar, №13, 3-bet.

<sup>83</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada musiqiy ta'limni, madaniyat va san'at o'quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to'g'risida"gi PF-1692-sonli Farmoni. 1996 yil 31 dekabr. Qarang: <https://lex.uz/docs/178763>

<sup>84</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni amalga oshirish masalalari haqida"gi 415-sonli qarori. 1995 yil 28 oktabr. Qarang: <https://lex.uz/docs/534682>

<sup>85</sup> O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 614-ish, 8-varaq.

<sup>86</sup> "O'zbekistonda milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. PF-1695-son, 08.01.1997. Qarang: <http://lex.uz/docs/1598417>. 13.04.17.

<sup>87</sup> Toshkent milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi. Qarang: <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/toshkent-milliy-raqs-va-xoreografiya-oliy-maktabi-uz/>

## TARIX

uchun unga “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi” nomi berildi. O‘zbekiston davlat konservatoriyasining yangi tuzilmasi tarkibida Estrada san’ati fakulteti, qoshida iqtidorli bolalar akademik musiqa litseyi, “Musiqa saroyi”, “Musiqa” nashriyoti va boshqa bo‘linmalari tashkil etildi<sup>88</sup>.

2005-yil 21-iyulda Mannon Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san’at instituti faoliyatini tubdan yaxshilash, teatr san’ati, kino, televideniye, san’atshunoslik hamda mazkur sohaning boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirish, shuningdek talabalarning ijodiy iste’dodi va qobiliyatini har tomonlama to‘liq yuzaga chiqarish uchun zarur moddiy-texnik baza va shart-sharoit yaratish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mannon Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san’at instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori<sup>89</sup> va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori<sup>90</sup> tizimda amalga oshirilgan islohotlarning davomi bo‘ldi.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti 1945-yil Toshkent davlat san’at instituti nomida faoliyat boshlagan oliygoh 1954-yildan e‘tiboran, Toshkent Davlat teatr va rassomlik san’ati instituti, 1991-yildan boshlab Mannon Uyg‘ur nomidagi Toshkent Davlat San’at instituti nomi bilan atalgan. 1997-yilda rassomlik fakulteti institutdan alohida oliygoh sifatida ajralib chiqdi. Shu munosabat bilan san’at instituti faoliyatida teatr san’atiga turdosh kino, estrada janrlarining hamma sohasi bo‘yicha mutaxassis tayyorlashga e‘tiborni kuchaytirish masalasi kun tartibida turgan. Chunki, sovet davrida faqat Moskvada tayyorlanadigan sof kinorejissyor, kinossenariy mualliflari, kino va teleoperatorlarini tayyorlash masalasi endilikda institut zimmasiga tushdi va yechimini kutayotgan masalaga aylandi.<sup>91</sup> 2016-yillarda ham bu soha vakillarini chiqarish masalasi dolzarbligini yo‘qotmadi.

Institutda 1993-yildan yangi “San’at jurnalistikasi” bo‘limi tashkil etildi. Boshida tajriba tarzida 3-4 talaba qabul qilindi. Shu bilan sohani rivojlantirishga qaratilgan o‘quv va o‘quv uslubiy izlanishlar boshlab yuborildi. “Teatrshunoslik” kafedrasini, “San’atshunoslik” kafedrasini deb yuritila boshlandi. 1997-yili “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” San’at instituti va uning kafedralari oldiga mustaqil yurtga munosib barkamol shaxs, ya’ni ma’nan yetuk, vatanparvar – o‘z kasbining mutaxassisini tarbiyalashdek muhim vazifani qo‘ydi. Unga asosan institutda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, uning mutasaddiligida tizimlar bilan hamkorlikda bakalavriat va magistr yo‘nalishlari davlat ta’lim standartlari ishlab chiqildi va o‘quv jarayoniga joriy etildi. Institutda yangi bo‘limlar ochildi. Jumladan, 1993-yildan boshlab “Ovoz rejissyorligi” bo‘limiga talabalar qabul qilina boshlandi. 1997-yilda “Kinoteleradio san’ati” fakulteti tashkil qilindi. 1998-yili dramaturgiya bo‘limi yuzaga keldi<sup>92</sup>. O‘n yil ichida “San’at jurnalistikasi” uch bora (1998, 2000, 2003 yillar) bitiruvchilar tugatgan bo‘lsa, dramaturgiya bo‘limi 2003-yilda ilk bor dastlabki 4 nafar dramaturg bitirdi.<sup>93</sup>

“San’at jurnalistikasi” bo‘limi institutning boshqa bo‘limlari qatori 2000-yildan e‘tiboran magistrnlarni tayyorlay boshladi. 2003-yilga kelib “San’at jurnalistikasi” bo‘limida davlat granti asosida 40 ta, to‘lov shartnoma asosida 80 dan ortiq talabalar tahsil oldi<sup>94</sup>. 2007-yildan Mannon Uyg‘ur nomidagi Toshkent Davlat san’at institutining respublikada teatr san’ati, kino, televideniye va san’atning boshqa sohalarida malakali mutaxassislar tayyorlovchi asosiy ta’lim muassasasi sifatidagi nufuzini oshirish maqsadida, O‘zbekiston Davlat san’at instituti deb o‘zgartirildi<sup>95</sup>. Keyinchalik, 2012-yil 9-aprelda madaniyat va san’at sohasida teatr, kino, televideniye, xalq ijodiyotini rivojlantirish borasidagi zamonaviy talablarga javob beradigan yuksak malakali

<sup>88</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent davlat konservatoriyasini O‘zbekiston davlat konservatoriyasiga aylantirish to‘g‘risida”gi PF-3052-sonli Farmoni. 2002 yil 16 aprel. Xalq so‘zi, 2002 yil 17 aprel.

<sup>89</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mannon Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san’at instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” qarori. // Teatr jurnali, №4, 2005, 1-bet.

<sup>90</sup> “O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutini tashkil etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1771 sonli Qarori. 04.06.2012. Qarang: <http://www.lex.uz/docs/2018209>. 03.12.2018.

<sup>91</sup> Tursunov T. Yillar va yo‘llar. //Teatr, №6, 2003, 5-6 betlar.

<sup>92</sup> Ubaydullayev A. Kinoteleradio san’ati. // Teatr, №6, 2003, 16-17 betlar.

<sup>93</sup> Ikromov H. Niyatimiz raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash. //Teatr, №6, 2003, 11-bet.

<sup>94</sup> Ikromov H. Niyatimiz raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash. //Teatr, №6, 2003, 12-bet.

<sup>95</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mannon Uyg‘ur nomidagi Toshkent Davlat san’at institutining nomini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi 157-sonli 26.07.2007. ”Qarang: <http://www.lex.uz/docs/1549593>. 13.04.17.

mutaxassislarni tayyorlash darajasi va sifatini takomillashtirish maqsadida, Toshkent davlat madaniyat instituti va O'zbekiston Davlat san'at instituti negizida O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti tashkil etildi<sup>96</sup>.

Institut madaniyat va san'at sohasiga bevosita aloqador bo'lgan bir qancha tor mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlovchi o'ziga xos oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi. O'quv yurtida ta'lim jarayoni fan va san'at, ijodiy faoliyat va amaliy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda olib boriladi. 2012-yilda institutda 934 nafar talabalar bo'lib, ularning 872 nafari bakalavr yo'nalishida, 62 nafari magistratura mutaxassisliklarida tahsil olgan bo'lsa,<sup>97</sup> 2016 yilga kelib, institutda 1600 ga yaqin talaba va magistrant tahsil olgan.<sup>98</sup>

Institutda san'at nazariyasi, teatrshunoslik va kinoshunoslik bo'yicha ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga ham katta e'tibor berildi. Xususan, 2012-yildan boshlab ushbu institutda «Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish» yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Shuningdek, «Madaniyat va san'at sohasi menejmenti» va «Ommaviy tadbirlar rejissurasi» yo'nalishlari bo'yicha ham magistr kadrlar tayyorlandi. Shu yildan boshlab, «Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik» yo'nalishi bo'yicha kvotalar, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetiga ham berildi. 2012-2013 o'quv yilidan boshlab kutubxonachilik bo'yicha mutaxassis kadrlar ushbu universitetda ham tayyorlanadigan bo'ldi<sup>99</sup>. Bu o'z navbatida yuqorida keltirilgan kutubxonachilik bo'yicha kadrlar muammosini yechishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

2016-yilda institutda 4 ta fakultet: Kino, televideniye va radio san'ati, Kutubxona-axborot faoliyati, Teatr san'ati, Xalq ijodiyoti fakultetlari faoliyat yuritgan bo'lib, unda 15 ta ixtisoslik bo'yicha, aktyorlik mahorati va rejissura, san'atshunoslik va teatrshunoslik, ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati, xalq ijodiyoti, madaniyat va san'at muassasalarini boshqarish kabi soha mutaxassislarida, teatrshunoslik, sahna va ekran dramaturgiyasi, san'atshunoslik jurnalistikasi, dramatik teatr va kino aktyorlik san'ati, qo'g'irchoq, estrada, musiqiy teatr aktyorligi san'ati, drama teatri rejissyorligi, televideniye va radio rejissyorligi, estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi, kino teleoperatorlik, kino, televideniye, radio va teatr tomoshalari ovoz rejissyorligi kabi yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash davom etdi. Shuningdek, institut qoshida san'at va madaniyat sohasidagi o'rta-maxsus va oliy o'quv yurtlari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida alohida markaz faoliyat yuritdi.

Madaniyat, teatr san'ati, kino va televideniye sohasida zamonaviy talablarga javob beradigan, xalq ijodiyoti an'alarini asrab-avaylash va rivojlantirishga qodir, badiiy ijodning zamonaviy metodlari, innovatsion texnika va texnologiyalarni puxta egallagan yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida, 2008-yil 28-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston davlat san'at institutining Nukus filialini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 845-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, Qoraqalpog'iston respublikasida O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat institutining Nukus filiali tashkil etildi<sup>100</sup>. Ochilgan yilda filialda «Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi» va «Drama teatri va kino aktyorligi san'ati» ta'lim yo'nalishlarida 25 talaba qabul qilingan bo'lsa, keyingi yillarda 9 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha 700 dan ortiq talaba bilim oldi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, zamon talablariga mos, salohiyatli kadrlar tayyorlashga diqqat-e'tibor qaratilgan. Ta'lim to'g'risidagi Qonun qabul qilingan va bu o'z navbatida salohiyatli kadrlar tayyorlash uchun dasturulamal vazifasini bajargan. Bu davrda madaniyat muassasalarida oliy ma'lumotli mutaxassis

<sup>96</sup> "O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutini tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1771 sonli Qarori. 04.06.2012. Qarang: <http://www.lex.uz/docs/2018209>. 03.12.2018.

<sup>97</sup> X.X.Shodiyev, Xoliqulova G.E. O'zbekiston Davlat san'at institutida kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash va sohani rivojlantirishda amalga oshirilayotgan ishlar."O'zbekiston madaniyati va san'atida zamonaviy qahramon obrazini yaratish muammolari va yechimlari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.6-bet.

<sup>98</sup> Institut haqida. <http://dsmi.uz/institut-haqida>

<sup>99</sup> "O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutini tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1771 sonli Qarori. 04.06.2012. Qarang: <http://www.lex.uz/docs/2018209>. 03.12.2018.

<sup>100</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston davlat san'at institutining Nukus filialini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 845-son qarori. 2008 yil 28 aprel.

## TARIX

kadrlarga ehtiyoj katta bo'lgan. Shu boisdan madaniyat vazirligi tomonidan oliy ma'lumotli kadrlar muammolarini yechish chora-tadbirlari ko'rilgan. Vazirlik tizimiga kiruvchi oliy ta'lim muassasalari kvotalarini yildan-yilga oshirib borilishiga muvaffaq bo'lingan. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida shartnomaviy usullarining qo'llanilishi, madaniyat muassasalarini oliy ma'lumotli kadrlar bilan ta'minlashda bir muncha yordam bergan bo'lsa-da madaniyat muassasalari oliy ma'lumotli, salohiyatli kadrlarga muhtoj bo'lgan. Bu holat, xususan madaniyat muassasalarini boshqarayotgan rahbar kadrlari orasida ham kuzatildi va bu esa madaniyat muassasalari faoliyatiga jiddiy ta'sirini ko'rsatib, faoliyatning sustlashuviga olib kelgan.

Madaniyat vazirligi boshqaruvidagi madaniyat muassasalarida oliy kadrlar yetishmasligini qo'yidagicha: — mustaqillikning dastlabki yillarida ro'y bergan iqtisodiy qiyinchiliklar va buning to'g'ridan-to'g'ri oliy o'quv yurtlari talabalar soniga ta'sir qilishi; oliy ta'lim muassasalariga berilgan kvotalarning kamligi; — madaniyat xodimlarining oylik maoshlari va moddiy rag'batning kamligi; — ularga kerakli sharoitlar yaratilmaganligi; — madaniyat muassasalarining yaroqsiz holga kelib qolganligi; qo'shni davlatlarga turli sabablar bilan aholining ketib qolishi kabi sabablar bilan izohlash mumkin.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 636-XII-son 02.07.1992. Qarang: <http://lex.uz/docs/56418>. 20.11.2018.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. N 464-I. 29.08.1997. <https://nrm.uz/contentf?doc=5989>
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son. 23.09.2020. <https://lex.uz/docs/5013007>
4. Ushbu markaz Madaniyat vazirligining 1993 yil 10 fevraldaga qaroriga asosan tashkil qilingan. Qarang: O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 50-ish, 76-varaq.
5. O'zRMA. 2487-fond, 3-ro'yxat, 6980-ish, 8-varaq.
6. O'zRMDA. M-7 fond, 1-ro'yxat, 653-ish, 42-varaq.
7. Bu ma'lumot ko'rib chiqilayotgan 1992 yillarga ta'lluqli. O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 58-ish, 155-varaq.
8. O'zRMA 2487-fond, 3-ro'yxat, 6950-ish, 21-varaq. Bu yerda respublikada faoliyat yuritayotgan pedagogika yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari qoshidagi madaniyat sohasiga tegishli fakultetlarga, o'rta-maxsus o'quv yurtlariga qabul qilingan talabalar soni kiritilmadi. Chunki, tadqiqot Madaniyat vazirligi tarkibiga kiruvchi muassasalar faoliyati bilan chegaralangan.
9. Ayrim madaniyat muassasalarida maxsus mutuxassislik bilimiga ega bo'lmagan o'rta ma'lumotli xodimlar ham faoliyat yuritgan, masalan kutubxonalarda.
10. O'zRMDA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 648-ish, 6-varaq (Ushbu ma'lumot 1998 yillarga taalluqli ekanligini ta'kidlash lozim)
11. O'zRMDA. M-7 fond, 1-ro'yxat, 653-ish, 42-varaq.
12. O'zRMDA. 2487-fond, 3-ro'yxat, 6983-ish, 19-varaq.
13. Arxiv hujjatlarida Guliston san'at bilim yurti Sirdaryo viloyati hududlariga mutaxassis kadrlarni tayyorlab jo'natganligi haqida hisobot tarzidagi ma'lumotlar keltirilgan. Shu o'rinda ushbu bilim yurtida nafaqat Sirdaryo viloyati hududlaridan balki, boshqa viloyatlardan ham kelib talabalar o'qiganligini e'tiborga olish lozim. Qarang: O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 655-ish, 34-varaq.
14. O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 654-ish, 13-varaq.
15. Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining 1993-1994 yillardagi asosiy ko'rsatkichlari –T., 1995, B. 7-22.
16. Bundan buyon MKT.
17. O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 655-ish, 36-varaq.
18. O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 655-ish, 9-varaq.
19. Karimbekov Q., Qorayev Sh. Ma'naviyat hissi. – Toshkent: O'qituvchi, 2000. – B. 22-91.
20. O'z.RMA, M-7-jamg'arma, 1-ro'yxat, 394-ish, 5-varaq.
21. Ko'rib chiqilayotgan davrga oid materiallar tahlili madaniyat muassasalarida ko'proq rus va boshqa millatlarga mansub mutaxassislar faoliyat yuritganligini ko'rsatadi. Ma'lumki, mustaqillikning dastlabki yillarida ayrim millatlarga mansub aholini ko'chib ketishi kuzatiladi.
22. O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 614-ish, 13-varaq.
23. O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 176-ish, 368-varaqlar.
24. O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 890-ish, 43-varaq
25. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi. Madaniyat vazirligining 2016 yilgi hisobotlari.
26. YUNISEF homiyligi
27. Masalan, Xamza teatrini Davlat va jamiyat kurilishi akademiyasi otaliqqa olgan.
28. Yaponiya Xalqaro hamkorlik agentligi (JICA)
29. O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 122-ish, 21-varaq.
30. O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 120-ish, 21-varaq.
31. O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 503-ish, 84-varaq.
32. Xalq so'zi, 2001 yil 13 sentabr
33. O'zbekiston respublikasi Madaniyat vazirligining joriy arxivi. 1-ro'yxat, 2337-ish, 35-varaq.

34. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi. Vazirlikning 2017-2018 yilgi hisoboti.
35. O'zRMA, M-7-fond, 1-ro'yxat, 888-ish, 17-18-varaqlar.
36. O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 648-ish, 6-varaq.
37. O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 614-ish, 27-varaq.
38. O'zRMA Fond M-7, 1-ro'yxat, 2-ish, 149-varaq.
39. O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 616-ish, 15-18 varaqlar.
40. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 23 yanvardagi "O'zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish haqida"gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 martdagi 131-sonli qarori
41. Rang-barang o'quv qo'llanmalari. //Toshkent oqshomi, 2003 yil 20 yanvar, №13, 3-bet.
42. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada musiqiy ta'limni, madaniyat va san'at o'quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to'g'risida"gi PF-1692-sonli Farmoni. 1996 yil 31 dekabr. Qarang: <https://lex.uz/docs/178763>
43. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni amalga oshirish masalalari haqida"gi 415-sonli qarori. 1995 yil 28 oktabr. Qarang: <https://lex.uz/docs/534682>
44. O'zRMA. M-7-fond, 1-ro'yxat, 614-ish, 8-varaq.
45. "O'zbekistonda milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. PF-1695-son, 08.01.1997. Qarang: <http://lex.uz/docs/1598417>. 13.04.17.
46. Toshkent milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi. Qarang: <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/toshkent-milliy-raqs-va-xoreografiya-oliy-maktabi-uz/>
47. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent davlat konservatoriyasini O'zbekiston davlat konservatoriyasiga aylantirish to'g'risida"gi PF-3052-sonli Farmoni. 2002 yil 16 aprel. Xalq so'zi, 2002 yil 17 aprel.
48. "O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutini tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1771 sonli Qarori. 04.06.2012. Qarang: <http://www.lex.uz/docs/2018209>. 03.12.2018.
49. X.X.Shodiyev, Xoliqulova G.E. O'zbekiston Davlat san'at institutida kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash va sohani rivojlantirishda amalga oshirilayotgan ishlar."O'zbekiston madaniyati va san'atida zamonaviy qahramon obrazini yaratish muammolari va yechimlari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.6-bet.
50. Institut haqida. <http://dsmi.uz/institut-haqida>
51. "O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutini tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1771 sonli Qarori. 04.06.2012. Qarang: <http://www.lex.uz/docs/2018209>. 03.12.2018.
52. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston davlat san'at institutining Nukus filialini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 845-son qarori. 2008 yil 28 aprel.